



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha*
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi

___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili 8-sinf
o'zbek tili fanidan II chorak uchun

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 8-sinf o‘zbek tili fanidan II chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Oqil elchi	1		
2.	Do‘stlik ko‘prigi	1		
3.	Avval o‘yla, keyin so‘yla	1		
4.	Osmondagi ochiq yo‘l	1		
5.	Temur Ko‘rgoniy sirlari	1		
6.	Tanqid emas, taklif	1		
7.	Muloqotning 10 ta oltin qoidasi	1		
8.	Adabiy o‘qish	1		
9.	Mustahkamlash	1		
10.	Nazorat ishi-3	1		
11.	Xatolar ustida ishlash	1		
12.	“Har bir odam – kashf etilmagan sir”	1		
13.	Do‘stlik sinovi	1		
14.	Inklyuziv ta’lim	1		
15.	#Ijtimoiyhaqiqat	1		
16.	Tabiat bilan do‘stlashish	1		
17.	Telefonsiz bir kun	1		
18.	Mening sevimli ustozim	1		
19.	Adabiy o‘qish	1		
20.	Nazorat ishi-4	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Oqil elchi

Maqsadlar:

- a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, o'zbek tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini aytadi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:



Suhbatni rollarga bo'lib o'qing.

- Kimlarni allomalar deb atash mumkin?
- Allomalar har biri o'z maktabini yaratgan buyuk olimlardir.Ular jahon ilm-fanini rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shishgan.
- Ular haqida yana nimalarni bilasiz?
- Raqam - IX asrda yashagan Al-Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Ibn Sino - Avitsennaning „Al-Qonun“ asarida juda ko'p kasalliklarning paydo bo'lish sabablari, 790 dan ziyod doridarmonlarning ro'yxati keltirilgan.

Qiziquvchan bola

(Rivoyat)

Bu voqeaning bo'lib o'tganiga ming yildan oshdi. Sakkiz yoshli do'mboqqina bola har kuni ertalab Amu sohili bo'ylab aylanib yurar, har xil o't, giyoh, gullarni, shuningdek, har xil meva, don va may datoshlarni yig'ishga oshiqardi. Kunlarning birida yig'gan giyohlarini ko'tarib, mahalla tabibiga keltirdi va: „Bobo, bu o'tlarning oti nedur?“ - deb so'radi. Tabib jilmaydi, bolaning qiziqishidan xursand bo'lib:

„Barakalla, bo‘tam, juda yaxshi ish qilibsiz. Bular dorivor o‘tlar - gilyohlar-ku“, - dedi. Shu tariqa bola har kuni gilyohlarni yig‘ib kelar, tabib esa bolaga ushbu gilyohlarning nomini, foydali tomonlarini aytib, bolaning tabiatga qiziqishini yanada oshirardi. Bu bolakay bo‘lajak ulug‘ olim Abu Rayhon Beruniy edi.

Abu Rayhon ota-onasidan erta yetim qolgan bo‘lsa ham yaxshi odamlarning qo‘lida tarbiyalandi. Yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqdi. Qadimgi xorazm tilini, turkiy, forsiy va arab tillarini mukammal egalladi. Matematika, astronomiya, geografiya, tarix va tibbiyot fanlariga doir ko‘p kitoblarni o‘qib chiqdi. Yulduzlarni kuzatdi, daryo oqimini o‘lchadi, tabiat sirlari bilan qiziqdi. Kuzatishlar olib borish maqsadida o‘zi ko‘pgina tajriba asboblari ixtiro qildi. Keyinchalik Beruniy o‘zi shu fanlardan kitoblar yozib, dunyoga mashhur olim bo‘lib yetishdi.

Topshiriq: Beruniy bolaligida qanday bola bo‘lganligi haqida so‘zlab bering. Siz nimalarga qiziqasiz?

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. IX - XI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma‘rifat qanday rivojlangan?
2. Nima uchun Movarounnahr „Buyuk allomalar yurti“ deb ataladi?
3. Kimlarning buyuk kashfiyotlari G‘arbda Uyg‘onish davri yuzaga kelishiga zamin yaratgan?

IV. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e‘lon qilish: Fanlardan egallagan bilimlaringiz asosida buyuk allomalar haqida ma‘lumot yozing.

Abu Rayhon Beruniy	<i>Xorazmda tug‘ilgan, geografiya, astronomiya, tarixga oid asarlar yozgan, birinchi bo‘lib Yerning dumaloqligini, okean ortida qit‘a borligini aytgan.</i>
...	...

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Do'stlik ko'prigi

Maqsadlar:

- a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, o'zbek tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:



Matni o'qimg, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Do'stlik haqida

Hech bir inson do'st **va** o'rtoqlarsiz yashay olmaydi. Qiziqishi, intilishi, didi sizniki bilan bir xil bo'lgan insonlar do'st hisoblanadi. Do'st **va** o'rtoqlaringiz koep bo'lgani yaxshi. Do'stlar bilan birga bo'lganingizda o'zingizni dadil tutasiz, **chunki** birgalikda barcha qiyin ishlarni amalga oshirasiz. Inson do'sti uchun hech narsani ayamaydi, do'stdan hech qanday sir tutilmaydi. Agar sizning shunday do'stingiz bo'lsa, uni qadrlang. Unga yordam kerak bo'lsa, har doim tayyor turing. Sodiqlik - do'stlikning oliy qonuni.

(„*Bolalar ensiklopediyasi* “dan)



Bilib oling!

Soʻz, soʻz birikmalari va gaplarni teng va tobe munosabatda bogʻlashga xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlar **bogʻlovchilar** deyiladi. Shunga koʻra ular teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilarga boʻlinadi. *Masalan: Roziya va Zebo – qalin doʻst. Ular bir sinfda oʻqishadi, shuning uchun maktabga birga borishadi.*

Gaplarni oʻqing va bogʻlovchilarni koʻrsating.

1. Bu topshiriqni Gulnora yoki Azizga yuklash mumkin.
2. Bu kitoblardan faqat bittasini olishingiz mumkin: yo bunisini, yoki unisini.
3. Bahor havosiga ishonib boʻlmaydi: goh yomgʻir yogʻadi, goh charaqlab quyosh chiqadi.
4. Bahodir va Sardor maktabga birga kelib, birga ketishadi.
5. Ogʻalarim - Vatan posboni, shuning uchun tinchdir osmonim.
6. Hayotda nimalarnidir yoʻqotdim, ammo topganlarim undan koʻp boʻldi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Rasmda qaysi millat vakillari tasvirlangan?
2. Haqiqiy doʻstlik qanday boʻladi?
3. „Kiyimning yangisi, doʻstning eskisi yaxshi“ maqolining maʼ- nosini tushuntiring.
4. Insonning hayotida doʻstlarning, doʻstlikning oʻrni qanday?

IV. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

V. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

42 listdan iborat o‘zbek tili fanidan 8-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**